

SOLIQ TEKSHIRUVLARI AMALIYOTIDA YURIDIK SHAXSLARNING SOLIQ INTIZOMI VA AUDITNING ROLI

Fozilov Ziyoxiddin Mo'ydinjon o'g'li

Andijon davlat texnika instituti 4-bosqich

“Buxgalteriya hisobi va audit” yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15463529>

Annotatsiya: Ushbu tezis ishida yuridik shaxslarning soliq intizomi darajasini baholashda soliq tekshiruvlari va auditorlik nazoratining o'rnini tahlil qilinadi. Tadqiqotda soliq tekshiruvlarining huquqiy asoslari, o'tkazish shakllari, yuridik shaxslar tomonidan yo'l qo'yilayotgan xatolar va ularni audit vositasida aniqlash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, soliq tekshiruvlarining yuridik shaxslar moliyaviy holatiga ta'siri va soliq intizomini ta'minlashdagi audit mexanizmlari chuqur yoritilgan.

Kalit so'zlar: soliq intizomi, soliq tekshiruvlari, yuridik shaxslar, soliq auditi, soliq xatolari, moliyaviy nazorat.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuridik shaxslarning soliqqa oid majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarmasligi davlat byudjeti daromadlarining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, soliq tekshiruvlari orqali soliq intizomini oshirish, yashirin daromadlar va soliqdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Yuridik shaxslar faoliyatida soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilishda soliq tekshiruvlari bilan bir qatorda auditorlik tekshiruvlarining ham o'rnini ortib bormoqda. Mazkur tezisdan aynan soliq intizomini ta'minlashda soliq tekshiruvlari va audit mexanizmlari qanday ishlashi tahlil qilinadi.

Yuridik shaxslar faoliyatida soliq intizomi — bu ularning soliq qonunchiligi talablariga to'liq rioya qilgan holda o'z vaqtida va to'g'ri soliq to'lovlarini amalga oshirishi bilan bog'liq tushunchadir. Soliq intizomini mustahkamlashda eng muhim vositalardan biri soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruvlardir. Soliq kodeksining 132–137-moddalariga asosan, soliq tekshiruvlari rejali va rejasiz shakllarda, kameral, sayyor yoki tematik tarzda o'tkaziladi.

Amaliyotda eng ko'p uchraydigan holatlardan biri bu hisobot davrlarida to'g'ri soliq hisob-kitob qilinmasligi, soliqqa tortilmaydigan daromadlar noto'g'ri ko'rsatilishi yoki xarajatlarning asossiz oshirilishidir. Bunday holatlar korxonalarda soliq tekshiruvlari paytida aniqlanadi va katta miqdordagi qo'shimcha soliq summalarining hisoblanishiga, jarima va penya belgilanilishiga olib keladi.

Soliq tekshiruvlari o'z mohiyatiga ko'ra aniqlovchi, tuzatuvchi va profilaktik funktsiyalarni bajaradi. Bu orqali soliq to'lovchilar soliq intizomiga jiddiy yondashishga majbur bo'ladi. Biroq, soliq organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlar doim ham barcha xatoliklarni qamrab olmaydi. Shu sababli, ichki va tashqi auditorlik tekshiruvlari soliq intizomini oshirishda muhim qo'shimcha vosita bo'lib xizmat qiladi.

Audit orqali yuridik shaxslar o'z moliyaviy hisobotlaridagi xatoliklarni aniqlash, soliq tavakkalchiliklarini baholash va ularni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, korxonada ichki nazorat tizimi to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, soliq auditi orqali salbiy oqibatlarining oldini olish mumkin. Auditorlik tekshiruvlari yuridik shaxslarni mas'uliyatli soliq siyosatini yuritishga, soliq rejasi tuzishga va soliq yuki prognozini shakllantirishga yo'naltiradi.

Soliq tekshiruvlarining amaliyoti yuridik shaxslar moliyaviy intizomi va qonuniy faoliyat yuritishini baholovchi eng muhim vositalardan biri bo'lib, ular orqali korxonalarning davlat oldidagi soliqqa oid majburiyatlarni bajarish darajasi aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan muntazam olib borilayotgan sayyor va kameral tekshiruvlar natijalari asosida soliq intizomi bilan bog'liq ko'plab muammolar yuzaga chiqayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, yirik xo'jalik subyektlari tomonidan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha noto'g'ri hisob-kitoblar, xarajatlar asossiz ko'rsatilishi, ayrim daromad turlari yashirilishi singari qonunbuzilish holatlari soliq tekshiruvlari davomida ochib berilmoqda. Bu esa yuridik shaxslar faoliyatida soliq intizomi darajasining har doim ham yetarli emasligini ko'rsatadi.

Davlat soliq qo'mitasi 2023 yilda o'tkazgan tahlillarga ko'ra, barcha sayyor tekshiruvlarning 70 foizdan ortig'ida qonunbuzilish holatlari aniqlangan va qo'shimcha ravishda 1,3 trillion so'mga yaqin soliq summalari undirilgan. Bu ko'rsatkichlar yuridik shaxslar o'z moliyaviy faoliyatini yuritishda soliq qonunchiligiga to'liq amal qilmayotganini anglatadi. Amalda ko'p hollarda xodimlarning yetarli bilimiga ega emasligi, hisob-kitoblarning avtomatlashtirilmaganligi, ichki nazorat tizimining sustligi soliq xatolariga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, yangi tashkil topgan yoki kichik biznes subyektlari bo'lgan yuridik shaxslarda soliq hisobi yuritishda ko'plab metodik va amaliy kamchiliklarga yo'l qo'yiladi. Bu esa davlat budjetiga tushumlarning kamayishiga hamda korxonalarning o'ziga nisbatan moliyaviy xavf va jazo choralari oshishiga olib keladi.

Shunday muammolar fonida soliq auditi va mustaqil auditorlik tekshiruvlarining ahamiyati yanada oshadi. Amaliyotda auditorlik xulosalari soliq organlariga ma'lumot taqdim etishda asosiy manba sifatida foydalaniladi. Masalan, "Orient Plast" MChJda tashqi auditorlar tomonidan 2022 yil moliyaviy hisobotida QQS bo'yicha 224 million so'mlik xatolik aniqlangan va korxona ushbu xatoni o'z vaqtida bartaraf etgan. Bu esa sayyor soliq tekshiruvi paytida jarima qo'llanilishining oldini olgan. Ana shunday misollar audit orqali soliq tavakkalchiliklarini kamaytirish va soliq intizomini mustahkamlash imkoniyatlarini yaqqol ko'rsatadi.

Shuningdek, auditorlik xizmatlari yordamida yuridik shaxslar o'z soliq strategiyasini shakllantirishi, xarajatlar va daromadlar tarkibini tahlil qilish orqali soliqqa tortiladigan bazani optimallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ichki auditorlik xizmatlari muntazam monitoring orqali faoliyatning barcha bosqichida nazoratni ta'minlab, soliq xavflarini real vaqt rejimida aniqlab beradi. Bu esa nafaqat soliq tekshiruvlari davomida aniqlanadigan muammolarni kamaytiradi, balki korxonaning obro'si va moliyaviy shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Boshqa tomondan, soliq tekshiruvlarining o'zbekistonda bosqichma-bosqich raqamlashtirilayotgani, masalan, "Risk-tahlil" avtomatlashtirilgan tizimlari orqali tekshiruv subyektlarini tanlab olish amaliyoti, soliq intizomini rag'batlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu tizim asosida yuqori xavfli subyektlar aniqlanib, ularni tekshiruvga jalb qilish orqali nazorat sifatliroq olib boriladi. Tekshiruv natijalari audit faoliyati bilan solishtirilib, tegishli tizimlar orqali korxonaga tavsiyalar beriladi. Bu esa soliq hisobining shaffofligini ta'minlash bilan birga, yuridik shaxslar faoliyatida ochiqlik va ishonchlilikni kuchaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuridik shaxslar uchun soliq intizomini shakllantirishda soliq tekshiruvlari asosiy vosita bo'lsa, audit esa ushbu vositaning muqobil va profilaktik shakli

sifatida xizmat qiladi. Har ikki yondashuv bir-birini to'ldirib, korxonalarda moliyaviy intizom, qonuniylik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega.

Yuridik shaxslarning soliq intizomini oshirishda soliq tekshiruvlari va auditorlik nazorati o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tizimlar hisoblanadi. Soliq tekshiruvlari orqali qonunbuzarliklar aniqlanib, davlat byudjeti daromadlari barqaror ta'minlansa, audit esa bu xatoliklarning oldini olish, profilaktika qilish va ichki nazoratni kuchaytirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Korxonalar o'z faoliyatini to'g'ri yuritish uchun mustaqil audit xizmatidan muntazam foydalanishi, soliq risklarini baholab, moliyaviy axborotni shaffof yuritishga intilishi lozim. Davlat soliq xizmati esa audit tizimini rivojlantirish orqali soliq intizomini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim islohotlarni davom ettirishi kerak.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 2022-yil tahriri
2. "Moliyaviy audit va soliq tekshiruvlari" – M.Isroilov, Toshkent, 2021
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi statistik byulleteni – 2023 yil
4. www.lex.uz – Normativ-huquqiy hujjatlar bazasi
5. www.soliq.uz – Soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti
6. S.S. G'ulomov, Q. Qoraboyev – "Iqtisodiy tahlil" darsligi, Toshkent, 2020
7. Mirzaahmedov M.T. – "Buxgalteriya va soliq hisobi asoslari", 2021